

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY INQIROZ SHAROITIDA YALPI TALABNI RAG'BATLANTIRISH CHORALARI

Dobilova Zahro Davron qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
dobilovazahro8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20026790>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda iqtisodiy inqiroz sharoitida yalpi talabni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosati va uning natijalari tahlil qilinadi. Unda fiskal va monetar choralar, xususan davlat xarajatlari, soliq yengilliklari va kreditlash hajmining o'zgarishi yalpi talab dinamikasiga ta'siri nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida iste'mol va investitsiya komponentlarining o'zgarishlari hamda ularning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi empirik ma'lumotlar asosida baholanadi. Natijada yalpi talabni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatini qanchalik muhim rol o'ynagan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Yalpi talab, iqtisodiy inqiroz, iste'mol, investitsiya, tashqi savdo, savdo defitsiti, inflyatsiya, real daromad, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy siyosat.*

МЕРЫ ПО СТИМУЛИРОВАНИЮ СОВОКУПНОГО СПРОСА В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКОГО КРИЗИСА В УЗБЕКИСТАНЕ

Добилова Захро Даврон қизи

Студент направления «Экономика»,

Деновский институт предпринимательства и педагогики
dobilovazahro8@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется государственная политика Узбекистана, направленная на стимулирование совокупного спроса в условиях экономического кризиса, а также её результаты. Рассматриваются фискальные и монетарные меры, в частности государственные расходы, налоговые льготы и изменения объёмов кредитования, с точки зрения их влияния на динамику совокупного спроса. В ходе исследования на основе эмпирических данных оцениваются изменения компонентов потребления и инвестиций, а также их связь с экономическим ростом. В результате анализируется, какую важную роль сыграла государственная политика в поддержке совокупного спроса.

Ключевые слова: *совокупный спрос, экономический кризис, потребление, инвестиции, внешняя торговля, торговый дефицит, инфляция, реальные доходы, экономический рост, макроэкономическая политика.*

MEASURES TO STIMULATE AGGREGATE DEMAND UNDER ECONOMIC CRISIS CONDITIONS IN UZBEKISTAN

Dobilova Zahro Davron qizi

Student of Economics, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
dobilovazahro8@gmail.com

Abstract: This article analyzes the government policy of Uzbekistan aimed at stimulating aggregate demand under conditions of an economic crisis and its results. It examines fiscal and monetary measures, in particular government expenditures, tax incentives, and changes in

lending volumes, from the perspective of their impact on aggregate demand dynamics. During the study, changes in consumption and investment components and their relationship with economic growth are evaluated based on empirical data. As a result, it is analyzed how significant a role government policy has played in supporting aggregate demand.

Keywords: *Aggregate demand, economic crisis, consumption, investment, foreign trade, trade deficit, inflation, real income, economic growth, macroeconomic policy.*

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilgan keskin o‘zgarishlar iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ydi. Ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishi, tashqi savdo aloqalarining izdan chiqishi hamda narxlar darajasining oshishi iqtisodiy tizimlarda ichki muvozanatning buzilishiga olib keldi. Bunday sharoitda iqtisodiy pasayish jarayonlarini tushuntirish va ularning oldini olishda ichki talab omillarining roli sezilarli darajada ortadi.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan ushbu jarayonlar Yalpi talab tushunchasi orqali izohlanadi. Yalpi talab iqtisodiyotda ma‘lum davr davomida ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarga bo‘lgan umumiy talabni ifodalaydi hamda iste‘mol, investitsiya, davlat xarajatlari va sof eksport yig‘indisidan iborat bo‘ladi. John Maynard Keynes ta‘kidlaganidek, iqtisodiy faollik darajasi aynan talab hajmiga bog‘liq bo‘lib, uning qisqarishi ishlab chiqarish hajmining pasayishiga va iqtisodiy o‘shishning sekinlashishiga olib keladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham ushbu nazariy bog‘liqlik amaliy jihatdan kuzatildi. Xususan, 2020-yilda yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘atining 5,7 foizdan 1,9 foizgacha pasayishi iqtisodiy faollikning sezilarli darajada susayganini ko‘rsatadi¹. Mazkur pasayish yalpi talab tarkibiy qismlarining bir vaqtning o‘zida qisqarishi bilan izohlanadi: tashqi savdo hajmining kamayishi eksport va import oqimlarini chekladi, investitsiya faolligi sustlashdi hamda real daromadlar o‘shishining sekinlashuvi ichki iste‘mol talabining pasayishiga olib keldi.

Mazkur inqiroz sharoitida yalpi talabning keskin qisqarishini oldini olish maqsadida davlat tomonidan tizimli iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar asosida iqtisodiyot tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, kreditlash mexanizmlarini kengaytirish hamda ijtimoiy xarajatlarni oshirishga qaratilgan kompleks choralar joriy etildi². Shu bilan birga, pul-kredit siyosati doirasida moliyaviy resurslar aylanishini qo‘llab-quvvatlash va inflyatsiyani nazorat qilish orqali iqtisodiy faollikni saqlab qolish choralari ko‘rildi³. Ushbu yondashuv yalpi talabning asosiy komponentlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, iqtisodiy pasayishning chuqurlashuvini cheklashga xizmat qildi.

Natijada 2021-yildan boshlab iqtisodiy tiklanish jarayoni kuzatilib, yalpi ichki mahsulot o‘shishi 7,4 foizni tashkil etdi va keyingi yillarda 5–6 foiz darajasida barqarorlashdi. Biroq hozirgi bosqichda iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlash uchun yalpi talab tarkibidagi muvozanatni kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

¹ World Bank. Uzbekistan data. <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>

² Inqirozga qarshi normativ hujjatlar. <https://lex.uz/docs/4762492>

³ O‘zbekiston Markaziy banki. Pul-kredit siyosati. <https://cbu.uz>

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy inqiroz davrida yalpi talab dinamikasini tahlil qilish, uning asosiy komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda qo‘llanilgan chora-tadbirlarning iqtisodiy o‘lishga ta‘sirini baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy inqiroz sharoitida yalpi talabni shakllantirish va uni rag‘batlantirish masalasi makroiqtisodiyot nazariyasining markaziy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo turli iqtisodiy maktablar tomonidan turlicha talqin etilgan bo‘lib, ularning asosiy farqi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda davlatning roli va bozor mexanizmlarining samaradorligini baholashda namoyon bo‘ladi.

Klassik iqtisodiy nazariyada bozor tizimi o‘z-o‘zini muvozanatlashtirish qobiliyatiga ega deb qaraladi. Adam Smith tomonidan ilgari surilgan “ko‘rinmas qo‘l” tamoyiliga ko‘ra, individual manfaatlar yig‘indisi umumiy iqtisodiy muvozanatni ta‘minlaydi [4]. Biroq keyingi iqtisodiy inqirozlar tajribasi ushbu yondashuvning cheklanganligini ko‘rsatdi.

Mazkur muammoning ilmiy asoslanishi John Maynard Keynes tomonidan ishlab chiqilgan keynschilik nazariyasida chuqur tahlil qilingan. Uning fikricha, iqtisodiy inqiroz davrida yalpi talab yetarli darajada shakllanmaydi va bu ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Shu sababli davlat fiskal siyosat vositalari orqali iqtisodiyotga faol aralashib, umumiy talabni kengaytirishi zarur [5]. Keynsning ushbu yondashuvi zamonaviy makroiqtisodiy siyosatning nazariy asosini tashkil etadi.

Keynschilik g‘oyalari keyinchalik rivojlantirilib, neokeynschilik maktabi doirasida narxlar qat‘iyligi va bozor nomukammalliklari chuqurroq o‘rganildi. Shu bilan birga, monetarizm maktabi vakili Milton Friedman iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda pul-kredit siyosatining ustuvorligini asoslab berdi. Uning ta‘kidlashicha, pul massasining nazoratsiz o‘zgarishi iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababidir [6].

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda yalpi talabni rag‘batlantirish masalasi kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Xususan, World Bank va International Monetary Fund tadqiqotlarida iqtisodiy inqiroz davrida fiskal va monetar siyosatni uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy faollikni tiklash mumkinligi qayd etilgan. Ushbu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhim bo‘lib, ichki talabni kengaytirish iqtisodiy o‘lishning asosiy drayveri sifatida baholanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga oid ilmiy tadqiqotlarda ham yalpi talab masalasi muhim yo‘nalish sifatida o‘rganilgan. Xususan, Baxodir Xodiyev va Said G‘aniyev kabi iqtisodchi olimlar o‘z asarlarida iqtisodiy o‘lishning asosiy omili sifatida investitsiyalar va ichki talabning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladilar [7]. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy o‘lish ko‘proq investitsiyaga tayanadi, bu esa yalpi talabning tarkibiy muvozanatini buzishi mumkin.

Shuningdek, milliy statistik ma‘lumotlarga asoslangan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda yalpi talab tarkibida iste‘mol asosiy ulushni egallaydi, biroq uning o‘lishi real daromadlar dinamikasiga bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, investitsiyalarning importga bog‘liqligi yalpi talabning ichki samaradorligini pasaytiradi, bu esa iqtisodiy o‘lishning barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy inqiroz sharoitida yalpi talabni rag‘batlantirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u davlat siyosati, moliyaviy tizim va ichki iqtisodiy omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot Yalpi talab (AD) modeli asosida olib borilib, 2019–2025-yillar uchun O‘zbekiston iqtisodiyotiga oid makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayandi. Tadqiqotda yalpi talabning asosiy komponentlari — iste‘mol, investitsiya, davlat xarajatlari va sof eksport dinamikasi empirik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida dinamik, strukturaviy va qiyosiy usullar bilan bir qatorda deduksiya va induksiya usullaridan foydalanildi. Xususan, deduktiv yondashuv asosida nazariy qoidalar amaliy ma‘lumotlar orqali tekshirildi, induktiv yondashuv orqali esa kuzatilgan empirik natijalardan umumiy xulosalar shakllantirildi. Olingan natijalar mantiqiy-analitik usulda umumlashtirilib, yalpi talab komponentlarining iqtisodiy o‘shishga ta‘siri baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2020-yilda yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi sharoitida O‘zbekistonda yalpi talabning keskin qisqarishini oldini olish maqsadida bir qator choralar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son Farmoniga muvofiq Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasi tashkil etilib, unga dastlab 10 trillion so‘m miqdorida mablag‘ yo‘naltirildi. Ushbu mablag‘lar sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotning eng ko‘p zarar ko‘rgan tarmoqlarini moliyalashtirishga yo‘naltirildi.

Mazkur choralar doirasida 2020-yilda davlat byudjeti xarajatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, byudjet xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushi 2019-yildagi 30 foizdan 2020-yilda 34 foizgacha oshgan. Ayniqsa, ijtimoiy xarajatlar keskin oshirilib, kam ta‘minlangan aholiga nafaqa va moddiy yordamlar hajmi kengaytirildi. Natijada pandemiya sharoitida aholi daromadlarining keskin pasayib ketishining oldi olindi.

Fiskal choralar natijasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

1-jadval

O‘zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (2019-2022)

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	2019	2020	2021	2022
<i>YAIM (mlrd \$)</i>	58,3	57,7	69,2	80,4
<i>YAIM o‘shish (%)</i>	5,7	1,9	7,4	5,7
<i>Byudjet taqchilligi (% YAIM)</i>	-1,5	-4,4	-3,7	-3,5
<i>Inflyatsiya (%)</i>	15,2	11,1	10,0	12,0

Jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda davlat xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushi sezilarli darajada oshib, fiskal siyosatning kengaytirilganini ifodalaydi. Shu bilan birga, byudjet taqchilligining kengayishi davlat tomonidan iqtisodiyotga qo‘shimcha moliyaviy resurslar kiritilganini va ular orqali yalpi talabning qisqarishi kompensatsiya qilinganini bildiradi. Mazkur davrda YAIM hajmi biroz qisqargan bo‘lsa-da, iqtisodiy o‘shish sur‘atining ijobiy darajada saqlanib qolishi fiskal choralar orqali iqtisodiy pasayishning chuqurlashuvi cheklanganini ko‘rsatadi.

2021-yilda iqtisodiy faollikning tiklanishi kuzatilib, YAIM hajmi sezilarli darajada oshgan va o‘shish sur‘ati 7,4 foizni tashkil etgan. Bu holat fiskal rag‘batlantirish choralari kechiktirilgan ta‘siri mavjudligini anglatadi. 2022-yilda esa iqtisodiy o‘shish sur‘atlari nisbatan barqarorlashgan bo‘lib, bu iqtisodiy tizimning moslashuv jarayonidan o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Inflyatsiya dinamikasi ham mazkur jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, 2020-yilda inflyatsiya darajasining pasayishi ichki talabning qisqarishi bilan izohlanadi, keyingi yillarda esa iqtisodiy tiklanish fonida inflyatsiya darajasi ma'lum darajada oshgan. Bu esa fiskal choralar va umumiy iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Umuman olganda, keltirilgan ma'lumotlar fiskal choralar orqali davlat xarajatlari hajmining oshirilishi iqtisodiyotga qo'shimcha talab kiritishning asosiy instrumenti bo'lganini va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasida ushbu jarayon bevosita aks etganini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rib chiqilgan fiskal kengayish choralarning asosiy maqsadi Yalpi talab tarkibidagi iste'mol va investitsiya komponentlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni saqlab qolishdan iborat bo'lganligi sababli, mazkur komponentlarning miqdoriy dinamikasini tahlil qilish ushbu siyosatning amaldagi natijalarini aniqlash imkonini beradi.

Pandemiya davrida amalga oshirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralariga qaramay, yakuniy iste'mol xarajatlarining YAIMdagi ulushi izchil pasaygan. Xususan, ushbu ko'rsatkich 2019-yilda 69,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 68,1 foizga, 2021-yilda 66,5 foizga, 2022-yilda 65,3 foizga va 2023-yilda 64,2 foizgacha kamaygan. Mazkur dinamikani real daromadlar o'sish sur'atlari bilan bog'lab ko'rish mumkin: 2020-yilda real daromadlar 0,9 foizga, 2021-yilda 3,0 foizga, 2022-yilda 2,0 foizga va 2023-yilda 3,0 foizga oshgan bo'lib, bu iste'mol talabining tez kengayishi uchun yetarli darajada yuqori sur'at emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi mos ravishda 11,1 foiz, 10,0 foiz, 12,0 foiz va 9,0 foizni tashkil etgan bo'lib, bu real xarid qobiliyatiga qo'shimcha bosim o'tkazgan⁴.

Uy xo'jaliklari xarajatlari tarkibining tahlili ham mazkur xulosani tasdiqlaydi. O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlar ulushi 48–50 foiz atrofida shakllangan bo'lib, bu ko'rsatkich o'rta daromadli mamlakatlar uchun xos bo'lgan darajadan yuqori hisoblanadi. Natijada xizmatlar va uzoq muddatli iste'mol tovarlariga bo'lgan talabning kengayishi cheklangan, bu esa ichki bozorning sifat jihatdan rivojlanishiga to'sqinlik qilgan⁵.

Investitsiya komponenti dinamikasi ham yalpi talab tarkibidagi muhim o'zgarishlarni aks ettiradi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 2019-yildagi 38,3 foizdan 2020-yilda 36,2 foizga, 2021-yilda 35,0 foizga, 2022-yilda 32,8 foizga va 2023-yilda 30,5 foizgacha pasaygan. Bu investitsiya faolligining nisbatan susayganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiya tarkibida davlat ulushi 2019-yildagi 45 foizdan 2023-yilda 38 foizgacha kamaygan bo'lsa-da, hali ham yuqori darajada saqlanib qolgan, xususi sektor ulushi esa 35 foizdan 42 foizgacha oshgan⁶.

Investitsiyalarning samaradorligini baholashda ularning importga bog'liqligi muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya loyihalarining sezilarli qismi import uskunalari va texnologiyalarga tayangan bo'lib, natijada investitsiya orqali yaratilgan talabning muhim qismi ichki ishlab chiqarish emas, balki tashqi bozorlarga yo'naltirilgan. Bu holat tashqi savdo ko'rsatkichlarida ham aks etadi: 2020-yilda eksport hajmi 15,1 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 26,9 mlrd dollarga yetgan, biroq import hajmi mos ravishda 21 mlrd dollardan 38,9 mlrd dollarga oshgan. Natijada savdo defitsiti 10–12 mlrd dollar diapazonida shakllangan⁷.

⁴ IMF Country Report: Uzbekistan — <https://www.imf.org>

⁵ World Bank Household Consumption Data — <https://microdata.worldbank.org>

⁶ Asian Development Bank — <https://www.adb.org/countries/uzbekistan>

⁷ UN Comtrade Database — <https://comtrade.un.org>

Mazkur tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iste‘mol va investitsiya komponentlari bir vaqtning o‘zida pasayish tendensiyasini namoyon etgan va yalpi talabning ichki tarkibiy manbalari yetarli darajada mustahkamlanmagan. Iste‘mol talabining sustligi investitsiya orqali to‘liq qoplanmagan, investitsiyaning o‘zi esa importga yuqori darajada bog‘liq bo‘lganligi sababli ichki multiplikativ ta‘sirni cheklagan.

2023–2025-yillarda O‘zbekistonda Yalpi talabni rag‘batlantirish siyosati inqirozdan keyingi tiklanish bosqichidan barqaror o‘shish bosqichiga o‘tdi. Ushbu davrda fiskal va monetar siyosat vositalari uyg‘unlashib, ichki talabni kengaytirish bilan birga makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan kompleks choralar amalga oshirildi.

2024-yilda davlat byudjeti xarajatlari 300 trillion so‘mdan oshib, YAIMga nisbatan qariyb 33 foizni tashkil etdi, bu ijtimoiy xarajatlar va infratuzilma loyihalari orqali iste‘mol talabini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qildi⁸. Shu bilan birga, bank tizimi orqali kreditlash hajmi 2023-yilda 19 foizga, 2024-yilda 20 foizga yaqin va 2025-yilda 14,1 foizga oshib, investitsiya faolligini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynadi. Tashqi savdo ko‘rsatkichlari ham yalpi talab shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatdi. 2025-yilda eksport hajmi taxminan 29 mlrd AQSh dollarini, import esa 39 mlrd dollarni tashkil etib, savdo defitsiti 10 mlrd dollar atrofida shakllandi⁹. Bu ichki talabning muhim qismi import orqali qondirilayotganini ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan inflyatsiya darajasi 2024-yildagi 9,8 foizdan 2025-yilda 7,3 foizgacha pasaygan bo‘lsa, iqtisodiy o‘shish sur‘ati 7,7 foizni tashkil etdi. YAIM hajmi esa 140 mlrd AQSh dollaridan oshgan, bu iqtisodiy faollikning sezilarli darajada kengayganini bildiradi¹⁰.

2-Jadval

Yalpi talabni rag‘batlantirish choralarining iqtisodiy natijalarga ta‘siri (2023–2025)

<i>Siyosat yo‘nalishi</i>	<i>Amalga oshirilgan choralar</i>	<i>Bevosita ta‘sir</i>	<i>Natijaviy ko‘rsatkich (2025)</i>
Fiskal siyosat	Davlat xarajatlarini oshirish (ijtimoiy va infratuzilma)	Aholi daromadlari oshdi, iste‘mol qo‘llab-quvvatlandi	Iste‘mol barqarorlashdi (63% YAIM)
Monetar siyosat	Kreditlash hajmini kengaytirish	Investitsiya faolligi oshdi	Kredit o‘sishi 14%
Soliq siyosati	Biznes uchun yengilliklar saqlanishi	Xususiy sektor faolligi oshdi	Investitsiya 30% YAIM
Tashqi sektor siyosati	Eksportni rag‘batlantirish	Valyuta tushumlari oshdi	Eksport 30 mlrd \$
Antiinflyatsion siyosat	Pul-kredit siyosatini qat‘iylashtirish	Narxlar bosimi pasaydi	Inflyatsiya 7.3%

⁸ O‘zbekiston Respublikasi “Open Budget” portali <https://openbudget.uz>

⁹ OEC – Uzbekistan Trade Data <https://oec.world/en/profile/country/uzb>

¹⁰ Fitch Ratings – Uzbekistan Economic Outlook <https://www.fitchratings.com>

Umumiy natija	Kompleks siyosat uyg'unligi	Ichki talab kengaydi	YAIM o'sishi 7.7%
---------------	--------------------------------	-------------------------	-------------------

Jadvaldan ko'rinadiki, 2023–2025-yillarda yalpi talabni rag'batlantirish bir yoqlama emas, balki kompleks siyosat orqali amalga oshirilgan. Fiskal siyosat iste'mol talabini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, monetar siyosat investitsiya faolligini rag'batlantirgan. Shu bilan birga, soliq va tashqi savdo siyosati xususiy sektor va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Natijada iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari diversifikatsiyalashgan bo'lib, 2025-yilda yuqori o'sish sur'atlariga erishilgan. Shu bilan birga, inflyatsiyaning pasayishi makroiqtisodiy muvozanat saqlanayotganini ko'rsatadi. Mazkur davrda yalpi talabning shakllanishi davlat xarajatlari, kreditlash va tashqi omillarning birgalikdagi ta'siri orqali yuzaga kelgan bo'lib, bu iqtisodiy siyosatning tizimli xarakterga ega ekanligini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda iqtisodiy inqiroz sharoitida Yalpi talabni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat bosqichma-bosqich takomillashib, dastlab qisqa muddatli stabilizatsiya choralaridan iborat bo'lgan bo'lsa, keyingi davrda fiskal va monetar instrumentlarning uyg'unlashuvi asosida tizimli xarakter kasb etdi. Xususan, fiskal kengayish orqali davlat xarajatlarining oshirilishi yalpi talabning keskin qisqarishini cheklagan bo'lsa, keyingi bosqichda kreditlash hajmining kengayishi investitsiya faolligini qo'llab-quvvatlab, iqtisodiy tiklanish jarayonini tezlashtirdi. Natijada 2025-yilda iqtisodiy o'sish sur'atining 7,7 foizga yetishi va inflyatsiyaning 7,3 foizgacha pasayishi makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tahlillar yalpi talabning tarkibiy muvozanati hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi, chunki iste'mol va investitsiya komponentlarining YAIMdagi ulushlari pasayish tendensiyasini saqlab qolmoqda, tashqi savdo defitsitining mavjudligi esa ichki talabning muhim qismi import orqali qondirilayotganini anglatadi. Bu esa iqtisodiy o'sishning ichki manbalari yetarli darajada mustahkamlanmaganini ko'rsatadi.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, birinchi navbatda, aholi real daromadlarini barqaror oshirish orqali iste'mol talabini kengaytirish zarur, buning uchun mehnat unumdorligini oshirish, ish haqi o'sishini inflyatsiyadan yuqori darajada ta'minlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada manzilli qilish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, investitsiya samaradorligini oshirish uchun investitsiya loyihalarining ichki ishlab chiqarish bilan bog'liqligini kuchaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va importga bog'liqlikni kamaytirish zarur. Uchinchidan, tashqi savdo muvozanatini yaxshilash maqsadida eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish hamda import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish lozim. To'rtinchidan, fiskal va monetar siyosat o'rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirish orqali bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish zarur. Beshinchidan, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va davlat xarajatlariga bo'lgan yuqori bog'liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirish orqali barqaror o'sish modelini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, yalpi talabni rag'batlantirish siyosati qisqa muddatda ijobiy natija bergan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda uning samaradorligini oshirish uchun tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish va ichki talab manbalarini mustahkamlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. World Bank. Uzbekistan data <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy hujjatlari portali. Inqirozga qarshi choralar to'g'risidagi hujjatlar (PF-5969). <https://lex.uz/docs/4762492>
3. O'zbekiston Markaziy banki. Pul-kredit siyosati. <https://cbu.uz>
4. Smith A. The Wealth of Nations. London: W. Strahan, 1776.
5. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936.
6. Friedman M. Money Mischief: Episodes in Monetary History. New York: Harcourt Brace, 1993.
7. Xodiyev B.Y., G'aniyev S. Makroiqtisodiyot. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
8. IMF Country Report: Uzbekistan — <https://www.imf.org>
9. World Bank Household Consumption Data — <https://microdata.worldbank.org>
10. Asian Development Bank — <https://www.adb.org/countries/uzbekistan>
11. UN Comtrade Database — <https://comtrade.un.org>
12. O'zbekiston Respublikasi "Open Budget" portali <https://openbudget.uz>
13. OEC – Uzbekistan Trade Data <https://oec.world/en/profile/country/uzb>
14. Fitch Ratings – Uzbekistan Economic Outlook <https://www.fitchratings.com>
15. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YAIM, inflyatsiya, daromadlar). <https://stat.uz>